

Tushgan testlar 09.04.26

Anora Mahkamova jamoasi uchun

Tuzuvchi: Husniya Egamberdiyeva

Tarix darsida o'qituvchi "Tosh davri" mavzusini tushuntirdi. Dars yakunida o'quvchilarga maxsus jadval tarqatildi. Jadvalda Tosh davri bosqichlari (paleolit, mezolit, neolit) bo'sh qoldirilgan bo'lib, o'quvchilar ushbu bosqichlarga oid eng muhim ixtirolar va tarixiy voqealarni mustaqil ravishda to'ldirishlari talab etildi.

Mazkur jarayonda qaysi didaktik tamoyil amalga oshirilmoqda?

A) Ta'limning ilmiylik tamoyili

B) Ta'limda onglilik va faollik tamoyili

C) Ta'limning ko'rgazmalilik tamoyili

D) Ta'limning tizimlilik va izchillik tamoyili

Dars jarayonida o'qituvchi haddan tashqari qattiqqo'llik bilan yondashadi. Natijada o'quvchilar loyiha ishlari davomida o'z fikrlarini erkin bayon etishdan cho'chib, savol berish va tashabbus ko'rsatishdan tiyilib qolishadi.

Ushbu holat o'quvchi shaxsiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

A) Bilish jarayonlarining sustlashishiga

B) Psixologik to'siq va ijodiy so'nishga

C) Ilmiy tushunchalarning yetishmasligiga

D) O'zaro raqobatning kuchayishiga

O'qituvchi dars davomida faqat o'zi gapirdi va o'quvchilarga faqat ma'lumotlarni yozdirish bilan cheklandi, ularning fikrlashi uchun vaqt ajratmadi.

Savol: Ushbu o'qituvchi o'zida qaysi ko'nikmani rivojlantirishi lozim?

A) Nutq texnikasi va ovoz ustida ishlashni.

B) Fan bo'yicha nazariy bilimlarini chuqurlashtirishni.

C) Interaktiv metodlar va muloqot madaniyatini.

D) Nazorat ishlarini o'tkazish texnologiyasini.

Quyidagi xususiyatlardan qaysi biri o'quvchilarda muloqot orqali ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlariga kirmaydi?

A) Har bir insonning qiziqishlarini ko'ra bilish, his etish va hurmat qilish.

B) Milliy-ma'naviy madaniyat manbalarini o'rgatish, urf-odat va qadriyatlarni tushuntirish.

C) Inson hayotida mehnatning o'rnini anglatish va unga ongli munosabatni shakllantirish.

D) Insonparvarlik, mehr-oqibat, iymon-e'tiqod, milliy qadriyatlarni inkor qilish.

Muntazam dars qoldirishi natijasida o'zlashtirishi pasayib ketgan o'quvchi bilan sinf rahbari qanday ish olib borishi eng to'g'ri va samarali hisoblanadi?

A) O'quvchi bilan jamoaviy suhbat o'tkazib, uning mas'uliyat hissini oshirish va sinf oldida muhokama qilish.

B) Fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda o'quvchiga qo'shimcha mashg'ulotlar belgilash va nazoratni kuchaytirish.

C) O'quvchi bilan individual ishlash, muammolarini aniqlash va ichki motivatsiyasini shakllantirish.

D) Ota-onasi bilan uchrashib, qat'iy nazorat o'rnatishni talab qilish va javobgarlikni ularga yuklash.

O'qituvchi darsga puxta tayyorgarlik ko'radi, mavzuni yaxshi biladi. Biroq u mavzuni tushunarli qilib yetkazishda qiynaladi. Dars jarayonida ham,

darsdan tashqarida ham o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnata olmaydi. Natijada o'quvchilar mavzuni to'liq o'zlashtira olmayapti.

Mazkur holatda o'qituvchining qaysi kasbiy qobiliyati yetarli darajada rivojlanmagan?

A) Kommunikativ qobiliyat

B) Kinetik (harakatga oid) qobiliyat

C) Nutq qobiliyati

D) Tashkiliy qobiliyat

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar bilan erkin suhbat olib boradi, ularning fikrlarini tinglaydi, savollariga aniq va tushunarli javob beradi. Natijada sinfda o'zaro hurmat va samimiy muloqot muhiti shakllangan.

Ushbu holatda o'qituvchining qaysi qobiliyati namoyon bo'lmoqda?

A) Didaktik qobiliyat

B) Kommunikativ qobiliyat

C) Tashkilotchilik qobiliyati

D) Kooperativ qobiliyat

Quyidagi bandlardan qaysilari ta'lim samaradorligini ta'minlash sohasiga tegishli emas?

1. Darsda vaqtni oqilona taqsimlash

2. O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish

3. O'qituvchining faqat hisobot hujjatlarini to'ldirish bilan shug'ullanishi

4. O'quvchilar bilimni baholash asosida darsni tahlil qilish

5. O'qituvchining shaxsiy ilmiy maqolalar yozishga ustuvor e'tibor qaratishi

6. Darsda AKTdan foydalanish.

A) 1, 3, 5

B) 3, 5

C) 2, 4, 6

D) 1, 2, 6

Quyida berilganlardan qaysi biri ta'lim samaradorligini ta'minlashga taalluqli emas?

A) Darsda vaqtni oqilona taqsimlash va undan samarali foydalanish

B) O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib differensial yondashuvni qo'llash

C) O'z fani uchun boshqa fanlarni integratsiya qilishni rejalashtirish

O'qituvchining tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish sohasiga tegishli mehnat harakatini aniqlang.

A) O'quvchilarda ijtimoiy faollik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularni jamiyat hayotiga moslashtirish

B) O'quvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish uchun turli tarbiyaviy tadbirlar va mashg'ulotlarni tashkil etish

C) O'zgaruvchan ko'p madaniyatli muhitda o'quvchilarda bag'rikenglik, odob-axloq va hayotga tayyorgarlik bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish

D) O'quvchilarda axloqiy sifatlarni rivojlantirish maqsadida sinf ichidagi o'zaro hurmat muhitini yaratish

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarga hurmat bilan, odobli muomala qiladi. O'quvchi xato qilganida uni tanqid qilish o'rniga qo'llab-quvvatlaydi, rag'batlantiradi va xatodan to'g'ri xulosa chiqarishga yordam beradi. Natijada o'quvchilar o'z fikrlarini erkin bayon etishga intiladi.

Mazkur vaziyat o'qituvchining qaysi sohaga tegishli faoliyatini ifodalaydi?

A) Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish

B) Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash

C) Ta'lim samaradorligini nazorat qilish

D) Didaktik materiallarni ishlab chiqish

Shaxsda jamiyat tomonidan belgilangan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga ongli ravishda amal qilish, o'z huquq va majburiyatlarini anglash hamda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon qaysi tarbiya turiga kiradi?

A) Axloqiy tarbiya

B) Siyosiy tarbiya

C) Huquqiy tarbiya

D) Ijtimoiy tarbiya

Dars jarayonida o'qituvchi mavzuni tushuntirib bo'lgach, o'quvchilarning faolligini kuzatdi. Ayrim o'quvchilar jim o'tirganini sezib, u ularning ichki holatini tahlil qildi va shunday xulosaga keldi: "Ehtimol, men ularning fikrini erkin bildirishiga yetarlicha sharoit yaratmadim yoki muloqotim yetarli darajada samimiy bo'lmadi". Shundan so'ng o'qituvchi o'z nutq uslubini o'zgartirib, savol-javob orqali o'quvchilarni suhbatga tortdi.

Ushbu holatda qaysi refleksiya turi namoyon bo'lgan?

A) Shaxsiy refleksiya

B) Intellektual refleksiya

C) Kommunikativ refleksiya

D) Faoliyat refleksiyasi

Ta'lim jarayonida refleksiya shunday turga kiradiki, u nafaqat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni yaxshilaydi, balki ularni yagona jamoa

sifatida shakllantirib, hamkorlikda ishlash, bir-birini tushunish va umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilishga xizmat qiladi.

Dars davomida o'qituvchi o'quvchilarni

kichik guruhlarga ajratib, ular bilan birgalikda fikr almashish, muammolarni muhokama qilish va umumiy qarorga kelishni tashkil etdi. Natijada sinfda o'zaro ishonch va jamoaviylik kuchaydi.

Ushbu holatda qaysi refleksiya turi namoyon bo'lgan?

A) Kommunikativ refleksiya

B) Kooperativ refleksiya

C) Individual refleksiya

D) Intellektual refleksiya

Pedagogning kasbiy faoliyatni mavjud ijtimoiy talab, huquqiy me'yor va standartlarga muvofiq tashkil etishga bo'lgan qobiliyati, kasbiy tayyorgarlik darajasiga nima deyiladi?

A) pedagogik tajriba

B) pedagogik yondoshuv

C) pedagogik mahorat

D) pedagogic

Quyidagi ta'lim shakllari va ularning kamchiliklarini moslashtiring.

1. Evrestik metod

2. Masofaviy ta'lim

A. Texnik vositalarga bog'liqlik yuqori, internet muammolari ta'lim sifatiga ta'sir qiladi

B. O'quvchilardan yuqori darajadagi mustaqil fikrlash talab etiladi, hamma o'quvchilar ham bunga tayyor emas

C. Bevosita jonli muloqot yetishmasligi sababli nazorat va motivatsiya pasayadi

A) 1-B, 2-A

B) 1-C, 2-B

C) 1-B, 2-C

D) 1-A, 2-C

O'quvchi mavzu yuzasidan avvalgi bilganlarini yozdi. Mavzu tushuntirilgandan so'ng esa o'quvchilar tushunganlarini va yana nimalarni o'rganmoqchi ekanliklarini yozishdi.

Ushbu yondashuv qaysi metodga kiradi?

A) Evrestik metod

B) BBB metodi

C) Muammoli ta'lim

D) Tushuntirish-ko'rsatish metodi

Dars mavzusi va o'quv materiallarining murakkablik darajasi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga hamda bilim darajasiga mos emas.

Ushbu holatda qaysi guruh talablari buzilgan?

A) Psixologik talablar

B) Gigiyenik talablar

C) Didaktik talablar

D) Estetik talablar

O'qituvchi yangi mavzuni dars davomida o'zi batafsil tushuntirib berdi, asosiy ma'lumotlarni yozdirib, so'ng o'quvchilardan aynan shu ma'lumotlarni qayta aytib berishni talab qildi. O'quvchilar asosan tinglovchi rolda bo'ldi.

Ushbu vaziyatda qaysi pedagogik texnologiya qo'llanilgan?

A) Shaxsga yo'naltirilgan texnologiya

B) Interfaol texnologiya

C) Didaktosentrik texnologiya

D) Muammoli ta'lim texnologiyasi

@ANORAMAHHKAMOVA1